

JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARIDA ILMIY TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

SPECIFIC ASPECTS OF DEVELOPING RESEARCH COMPETENCE IN PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS SPECIALISTS

Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich, associate professor Uzbek state university of physical culture and sports, pedagogical sciences doctor of philosophy (PhD)

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ НАУЧНО- ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТА

Якубов Фазлиддин Мухитдинович, доцент Узбекского государственного университета физической культуры и спорта, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)



[https://orcid.org/0009-0007-](https://orcid.org/0009-0007-9591-9739)

[9591-9739](https://orcid.org/0009-0007-9591-9739)

e-mail:

fazliddinyaqubov46@gmail.com

Annotatsiya: Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini takomillashtirish yo'nalishlaridan biri uning ilmiy-tadqiqot faoliyatida faol ishtirok etishidir. Bu esa ilmiy-tadqiqot kompetentligining yuqori darajada shakllanishini ta'minlaydi. Natijada esa jismoniy tarbiya va sport sohasidagi muammolarga ilmiy-metodologik yechimlar bazasi rivojlanishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari, kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetensiya, ilmiy tadqiqot, tadqiqotchilik kompetensiyasi, amaliy ko'nikma, malaka.

Abstract: One of the directions for improving the research competence of specialists in physical culture and sports is their active participation in research activities. This ensures a high level of formation of research competence. As a result, this will lead to the development of a base of scientific and methodological solutions to problems in the field of physical culture and sports.

Key words: specialists in physical culture and sports, competence, competence, professional competence, scientific research, research competence, practical skills, qualifications.

Аннотация: Одним из направлений повышения научно-исследовательской компетентности специалистов по физической культуре и спорту является их активное участие в научно-исследовательской деятельности. Это обеспечивает высокий уровень формирования научно-исследовательской компетентности. В результате это приводит к развитию научно-методической базы решений проблем в области физической культуры и спорта.

Ключевые слова: Специалисты по физической культуре и спорту, компетенция, компетентность, профессиональная компетенция, научное исследование, исследовательская компетенция, практические навыки, квалификация.

KIRISH. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda sport sohasi rivojiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-414-sonli qarori sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish tizimini takomillashtirishga sabab bo‘ldi[1]. Sport va ta‘lim sohasidagi tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish uchun zamonaviy laboratoriyalar, ilmiy konferensiyalar, grant loyihalari va akademik mobillik dasturlari joriy etilmoqda. Bu esa sport mutaxassislarining ilmiy kompetentligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Bugungi kunda zamonaviy jismoniy tarbiya va sport mutaxassisi profiliga faqat belgilangan nazariy bilimlar darajasiga ega bo‘lishi yetarli hisoblanmaydi. Bunda yangi bilimlarni egallash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishi hamda sohadagi real muammolarni hal qila olish kompetensiyalarini ham egallashi lozim bo‘lmoqda. Jismoniy tarbiya va sport ta‘limida sifatni baholash mezonini bu soha mutaxassisining kasbiy kompetentligidan iborat bo‘lib, u uning kasbiy faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni samarali hal qilish qobiliyatini belgilaydi.

Kompetensiya so‘zi lotincha “competentia”dan kelib chiqqan bo‘lib, shaxs yaxshi xabardor, bilim va tajribaga ega bo‘lgan masalalar doirasini anglatadi. Bu sohada inson tegishli qobiliyatlarga ega bo‘lib, mazkur soha haqida asosli fikr yuritish va unda samarali harakat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ta‘limiy kompetensiyalar ta‘limga shaxsiy yondashuvdan kelib chiqadi, faqatgina ma‘lum harakatlarni bajarish jarayonida namoyon bo‘ladi va baholanadi.

Kompetentlik – bu shaxsning allaqachon shakllangan sifatleri majmuidir. Ya‘ni, kompetentli mutaxassis – bu zarur bilim, ko‘nikma va tajribaga ega bo‘lgan shaxs, kompetentlik esa ushbu zarur

kompetensiyalar to‘plamiga ega bo‘lgan shaxsning xususiyatidir. Kompetensiyaviy ta‘lim mazmunidagi umumiy va individual jihatlarni ajratish uchun “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalaridan foydalaniladi.

Kasbiy kompetentlik – bu o‘z kasbini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilimlar, ko‘nikmalar, qobiliyatlar va sifatlar to‘plamidir. Kasbiy kompetentlik nafaqat biror sohada zarur bilim va ko‘nikmalarni egallashni, balki ularni amaliyotda to‘g‘ri va samarali tarzda qo‘llashni ham anglatadi. O.A.Bulavenko ta‘kidlashicha, “kompetentlikka kasbiy faoliyatning o‘ziga xos chizgisi sifatida emas, balki shaxsning turg‘un oshirilgan yoki pasaytirilgan faollikda namoyon bo‘luvchi holati sifatida qarash kerak”[2]. Bizningcha kompetentlik faqat faol kasbiy faoliyatda namoyon bo‘ladi. O‘z navbatida A.V.Xutorskoy mutaxassisning kasbiy kompetentligini kasbiy va individual sifatleri majmuasi deb qaraydi[3].

Mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, “ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyasi” tushunchasining umumqabul qilingan yagona bir ta‘rifi mavjud emas. Biroq, olimlar tomonidan bunga bir qancha izohlar berib o‘tishgan. O.Y.Yefricheva ilmiy tadqiqotchilik kompetentlikni “ilmiy materialni tahlil qilish va baholash bilan bog‘liq qobiliyat” sifatida tushuntiradi[4]. N.G.Alekseyev esa uni “ijodiy fikrlash jarayoni va natijalarini aks ettiruvchi, tadqiqot-loyihalash faoliyatiga xos bo‘lgan qobiliyat” sifatida ta‘riflaydi[5].

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Bizningcha, ilmiy tadqiqotchilik kompetentligi – bu ilmiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarning jamlanmasi bo‘lib, u muammoni aniqlash va unga yechim taklif qilish, ilmiy usullarni qo‘llash, natijalarni baholash hamda yangi bilimlarni ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘ladi. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirishda samarali shakl, usul va vositalar tizimining o‘rni juda muhimdir. Bu jarayon ilmiy izlanishlar, sport sohasidagi yangiliklar va metodologik yondashuvlarni o‘rgatish orqali amalga oshiriladi.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishda foydalaniladigan shakl, usul va vositalar tizimi

Tarkibiy qismlar	Tavsif	Misollar
Shakllar	Ilmiy tadqiqot faoliyatiga jalb qilish shakllari	- Amaliyot asosida yo‘naltirish: sportchilarning ilmiy tadqiqot jarayonlarida ishtirok etishi, amaliy mashg‘ulotlarga ilmiy uslublarni joriy etish.
		- Seminar va treninglar: ilmiy izlanish usullari va sport sohasidagi innovatsiyalar bo‘yicha seminar va treninglar o‘tkazish.
		- Konferensiyalar va anjumanlar: ilmiy tadqiqotlar natijalarini muhokama qilish va yangi izlanishlarga yo‘naltirish.
Usullar	Ilmiy tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish usullari	- Ilmiy va amaliy yondashuv: Tadqiqot metodlarini sport amaliyoti bilan integratsiya qilish.
		- Interaktiv usullar: onlayn platformalar, guruhli ishlar, muhokamalar orqali ta’lim berish.
		- Case-study yondashuvi: sport sohasidagi real muammolarni ilmiy tahlil qilish va yechim ishlab chiqish.
Vositalar	Ilmiy tadqiqotlar uchun qo‘llaniladigan texnologiya va resurslar	- Zamonaviy ilmiy texnologiyalar: SPSS kabi dasturlar, raqamli qurilmalar (wearables), virtual reallik texnologiyalari.
		- Ilmiy jurnallar va ma’lumotlar bazalari: sport tadqiqotlariga oid ilmiy maqolalar va elektron resurslarga kirish imkoniyati.
		- Sport tajribalarini tahlil qilish vositalari: Sportchilar va mutaxassislarning faoliyatini o‘rganish uchun eksperimental texnologiyalar va tahlil usullari.

XULOSA. Bo‘ljak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislariga nafaqat mustahkam nazariy bilimlar berish, balki ularning ilmiy tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratish zarur. Tadqiqotchilik kompetensiyasining rivojlanishi ijodiy va intellektual salohiyatni kengaytirish, umumiy va kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun zamin yaratadi. Ilmiy tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish jarayonida jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari ta’lim jarayonida faol ishtirok etuvchi subyektga aylanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 3-noyabrda “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4877-sonli qarori.lex.uz.
2. Булавенко О.А. Профессиональная компетентность современного специалиста экономического профиля: сущностные характеристики // Вестник Брянского государственного университета. 1 (2010): Общая педагогика. Профессиональная педагогика. Психология. Частные методики. - Брянск: РИО БГУ, 2010. - С.21-26.
3. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно ориентированной парадигмы образования // Народное образование. 2003. № 2. С. 58–64.
4. Ефричева О.Ю. Исследовательская компетенция: ее сущность и содержание / О.Ю.Ефричева, И.В.Мельник, В.С.Михайлюкова // Актуальные исследования. 2021. — №14 (41). — С. 59-62.
5. Алексеев Н.Г. Концепция развития исследовательской деятельности учащихся / Н.Г.Алексеев // Исследовательская работа школьников. – 2017. – №1. – С.24-33.